O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
____
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori M.E.Po‘latov
«29» 08 2024 yil

Ro‘yxatga olindi: №____________
2024 yil “29” 08

BANKLAR FAOLIYATIDA STRATEGIYALAR VA BIZNES MODELLAR FANINING O‘QUV DASTURI

(Magistrlar uchun)

Bilim sohasi: 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq

Ta’lim sohasi: 410 000 - Biznes va boshqaruv

Ta’lim yo‘nalishi: 70410501 - Bank ishi va auditi

Samarqand-2024

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili 2024 - 2025	Semestr 1	Kreditlar 4
Fan/mavzu turi Tanlov	**Ta’lim tili** O‘zbek/rus		**Haftadagi dars soatlari** 4

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1	**Banklar faoliyatida strategiyalar va biznes modellar**	60	60	120

2

I.Fanning mazmuni

“Banklar faoliyatida strategiyalar va biznes modellar” fanning maqsadi – magistrantlarga strategiyani shakllantirish mexanizmi, strategik rejalashtirish asoslari, bank faoliyatini boshqarishning tashkiliy strukturasi, bank moliyaviy, marketing, xodimlar bilan ishlash, xavfsizlik va risklarni boshqarish strategiyasi, zamonaviy biznes modellarni faoliyatga joriy etish bilan bog‘liq masalalar, muammolar va ularni bartaraf qilish usullari haqida chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1 – mavzu. Bankni boshqarish tizimida strategiyaning o‘rni va ahamiyati

Bank strategiyasining ahamiyati va uning oldiga qo‘yilgan vazifalar. Bank strategiyasining mohiyati. Bank missiyasi va maqsadini aniqlash va bank strategiyasini shakllantirish jarayoniga yondashuvlar. Turli hajmga ega banklar strategiyasini ishlab chiqilishi xususiyatlari. Bankning strategik rejasi. Bankning strategik rejasini ishlab chiqishda inobatga olinishi lozim bo‘lgan omillar. Bank strategik rejasini ishlab chiqish bosqichlari.

2 – mavzu. Bank boshqaruv tizimining tashkiliy strukturalari

Bank boshqaruv tizimining tashkiliy strukturasi va uning bazaviy elementlari. Boshqaruv tizimi strukturasini optimallashtirish imkoniyatlari. Bank boshqaruv tizimi strukturasining asosiy modellari. Bank boshqaruv tizimining an’anaviy (funksional), bozorga qaratilgan, xizmatlar guruhlariga yo‘naltirilgan, matritsali va boshqa modellari.

3 – mavzu. Bankning moliyaviy strategiyasi

Bank moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishning metodologik asoslari. Moliyaviy stratgeyning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari. Bank moliyaviy strategiyasining asosiy yo‘nalishlari. Bank moliyaviy strategiyasini ishlab chiqish jarayoniga asosiy yondashuvlar. Foiz siyosati va unga yondashuvlar. Emission siyosat, depozit siyosati, kredit siyosati, investitsion siyosat, divident siyosati.

4 – mavzu. Bankning marketing strategiyasi

Bank marketing strategiyasining metodologik asoslari va uning xususiyatlari. Bank marketing strategiyasining asosiy yo‘nalishlari. Raqobatbardoshlikni ta’minlash siyosatining bazaviy usullari. Bank xizmatlari turlari siyosati. YAngi bozorlarga kirib borish siyosati, narx siyosati, reklama siyosati.

5 – mavzu. Bankning xodimlar strategiyasi

Bank ishida xodimlar strategiyasining metodologik asoslari. Xodimlar strategiyasini belgilashga yondashuvlar. Xodimlarni boshqarish yuzasidan doktrinalarining mohiyati. Bank xodimlar strategiyasining bosh maqsadlari. Xodimlar sonini muvofiqlashtirish siyosati. Xodimlarni rivojlantirish siyosati. Xodimlar motivatsiyasi siyosati. Bankning ijtimoiy siyosati.

6 – mavzu. Bank xavfsizligini ta’minlash strategiyasi

Bank ishida xavfsizlikni ta’minlash strategiyasining metodologik asoslari. «Oldindan xavfni barataraf qilish» strategiyasi. «Passiv himoya» strategiyasi. «Adekvat javob» strategiyasi.

7 – mavzu. Bank risklarini boshqarish strategiyasi

Bank risklarining mazmun va mohiyati, bank risklarini strategik boshqarishning metodologik asoslari. Bank risklarining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari. «YUqori riskli» strategiya. Risklarni minimallashtirish strategiyasi. Risklarni diversifikatsiyalash strategiyasi. YUzaga kelgan risklardan olingan yo‘qotishlarni kompensatsiyalash usullarini tanlashga strategik yondashuvlar.

8-mavzu. Tijorat banklari faoliyatida transformatsion jarayonlarning mazmuni va mohiyati

Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash. Transformatsion jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari. Transformatsion jarayonlarning bank faoliyatiga ta’siri. Bank faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Banklar faoliyatida kuzatilayotgan asosiy tendensiya va trendlar.

9-mavzu. Tijorat banklari faoliyatini an’anaviy modellar asosida tashkil etish xususiyatlari

An’anaviy modellar asosida bank faoliyatini tashkil etish. An’anaviy modellarda depozitlar va boshqa mablag‘larni jalb qilish xususiyatlari. Kredit va boshqa aktiv operatsiyalarni tashkil etilishi. Bank kapitali va uning tarkibiy tuzilmasi. Bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta’minlash. Bank faoliyatini tashkil etishning an’anaviy modellariga xos bo‘lgan ustuvorlik va kamchiliklar.

10-mavzu. Tijorat banklari faoliyatin raqamli platformalar orqali tashkil etish modellari

Raqamli banklarni identifikatsiyalash. Raqamli platformalar asosida bank faoliyatini tashkil etish xususiyatlari. Bank xizmatlari va maxsulotlarini sotishning masofaviy kanallari. Super APlar va boshqa yuqori texnologik platformalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatish. Innovatsion bank xizmatlari. Banklar faoliyatida operatsiyalar va mijozlarga oid ma'lumotlarni himoyalash usullari.

11-mavzu. Tijorat banklari faoliyatida "Gibrid" biznes modellarning joriy etilishi

Tijorat banklarida innovatsion infratuzilmalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari. Innovatsion ishlanmalar asosidagi faoliyatga tayanuvchi "gibrid" biznes modellar. Tijorat banklari faoliyati natijalarini baholashda nomoliyaviy ko'rsatkichlarning qo'llanilishi. Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash mexanizmlari

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Bankni boshqarish tizimida strategiyaning o'rni va ahamiyati
2. Bank boshqaruv tizimining tashkiliy strukturalari
3. Bankning moliyaviy strategiyasi
4. Bankning marketing strategiyasi
5. Bankning xodimlar strategiyasi
6. Bank xavfsizligini ta'minlash strategiyasi
7. Bank risklarini boshqarish strategiyasi
8. Tijorat banklari faoliyatida transformatsion jarayonlarning mazmuni va mohiyati
9. Tijorat banklari faoliyatini an'anaviy modellar asosida tashkil etish xususiyatlari
10. Tijorat banklari faoliyatin raqamli platformalar orqali tashkil etish modellari
11. Tijorat banklari faoliyatida "Gibrid" biznes modellarning joriy etilishi

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Strategik reja ishlab chiqilishi inobatga olinuvchi omillar
2. Strategik rejalashtirish bosqichlari
3. Bank boshqaruv tizimining tashkiliy strukturasi
4. Boshqaruv tizimini optimallashtirish imkoniyatlari
5. Boshqaruv tizimining asosiy modellari
6. Bank likvidliligi va rezervlarini boshqarish
7. Bankning foiz, emission va depozit siyosati
8. Bankning kredit, investitsion va dividend siyosati
9. Bank strategiyasining aloxida xususiyatlari
10. Tijorat banklari tomonidan strategik rejalashtirish jarayonining tashkil qilishi tartibi
11. Bank strategik rejasining asosiy bo'limlari va ularning mohiyati.
12. Bank tashkiliy strukturasini shakllantirilishi va strategiya o'rtasidagi bog'liqlar
13. Kredit siyosatining bosh maqsadi va unga erishish yo'llari.
14. Foiz siyosati va uni amalga oshirish tartibi.
15. Emission siyosatning oldiga ko'yilgan asosiy vazifalar
16. Samarali depozit siyosatini olib borishning asosiy yo'nalishlari
17. Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalash. Transformatsion jarayonlarning asosiy yo'nalishlari.
18. Transformatsion jarayonlarning bank faoliyatiga ta'siri.
19. Banklar faoliyatida kuzatilayotgan asosiy tendensiya va trendlar.
20. An'anaviy modellar asosida bank faoliyatini tashkil etish.
21. An'anaviy modellarda depozitlar va boshqa mablag'larni jalb qilish xusuiyatlari.
22. Raqamli banklarni identifikatsiyalash.
23. Raqamli platformalar asosida bank faoliyatini tashkil etish xususiyatlari.
24. Bank xizmatlari va maxsulotlarini sotishning masofaviy kanallari.
25. Super APlar va boshqa yuqori texnologik platformalar orqali bank xizmatlarini ko'rsatish.
26. Tijorat banklarida innovatsion infratuzilmalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
27. Tijorat banklarida innovatsion faoliyatning asosiy yo'nalishlari.
28. Innovatsion ishlanmalar asosidagi faoliyatga tayanuvchi "gibrid" biznes modellar
29. Tijorat banklari faoliyati natijalarini baholashda nomoliyaviy ko'rsatkichlarning qo'llanilishi
30. Moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlar o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash mexanizmlari

V. Fan o'zlashtirilishining natijalari (shakllanadigai kompetensiyalar)

Magistr fanni o'zlashtirish natijasida:

- bank strategiyasi tushunchasi, uning mazmuni, maqsadi, strategiya turlari, bank strategiyasini ishlab chiqishning xuquqiy, iqtisodiy asoslari, bank strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari, funksiyalari, maqsad va vazifalari, bank strategiyasining tarkibiy elementlari, strategik rejalashtirish asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak;
- bank strategiyasini ishlab chiqish asoslari va tamoyillarini, bank strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari, bank strategiyasining samaradorligini aniqlash yo'llarini, bank strategiyasini umudavlat strategiyasi bilan bog'lish mexanizmlari, bank strategiyasini amalga oshirishda nazorat va tartibga solish mexanizmlari haqida bilishlari kerak;
- bank strategiyasini shakllantirish mexanizmi, funksional strategiyalar bilan bog'liq masalalar, muammolar va ularni bartaraf qilish usullari, funksional strategiyalar va siyosatlarni ishlab chiqsh va amalga oshirish, bank strategiyasi samaradorligini aniqlash bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;

- seminarlar (mantikiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ish yoki testni topshirish.

Asosiy adabiyotlar

1. The Business of Banking.What Every Policy Maker Needs to Know. About the American Bankers Association. of December, 2013.
2. M. Buckle, E. Beccalli. Principles of banking and finance.Published by: University of London. 2008.
3. Abdullaeva SH.Z. “Bank ishi” o‘quv qo‘llanma T. “Iqtisod-Moliya” 2010 y. – 368 b.
4. Qoraliev T, Qodirov E. va boshqalar “Xorijiy mamlakatlarda bank ishi” o‘quv qo‘llanma. T.: Noshir 2012 y – 215 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
3. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistoning taraqqiyot strategiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son.
5. Qoraliev T.M., Sattarov O. va boshqalar “Tijorat banklari faoliyati tahlili”. O’quv qo‘llanma. 2013-yil. – 192 b.
6. F.M.Daminov, YU.A.Toyirov. Bank strategiyasi. O‘quv – uslubiy – amaliy qo‘llanma. SamISI. 2013 yil

Axborot manbaalari:

1. http://www.mail.tdiu.uz – TDIU elektron kutubxonasi
2. http://lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi
3. www.ziyonet.uz –ta’lim portali
4. www.aup.ru –administrativno-upravlencheskiy portal
5. www.cbu.uz.- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-14-36

Fan/modul uchun mas’ullar:
Karimova Aziza Maxomadrizoevna, “Bank ishi” kafedrasi mudiri, i.f.d., dotsent;

Takrizchilar:
R.G‘aybullaev – TDIU Samarqand filiali, i.f.d., professor
J.Nurullaev – O‘zsanoatqurilishbank Samarqand filiali boshqaruvchisi o‘rinbosari